

YOZMA ISHLARDA DIKTANTNING AHAMIYATI

Yorbulova Dildora Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6786696>

Annotatsiya: Ushbu maqolada DTS talablari yozma ishlar, diktant turlari haqidagi izohlar keltirilgan. Turli qo'llanmalardan izohlar keltirilib dalillangan.

Tayanch so'zlar: DTS, nutq, insho, bayon, diktant, matn, yozma ish, tafakkur darajasi, imlo, tinish belgi, ta'limiy ahamiyat, I.Xolmurodov va S. Musayevlar, tinglovchi.

Insoniyat yaralibdiki, u boshqa mavjudotlardan tili va tafakkuri bilan ajralib turadi. Nutq uning ongida shakllangan voqea-hodisa, shaxs va narsani yuzaga chiqarib beradi. Bu nutq esa ikki xil shaklda: yozma va og'zaki shaklda yuzaga chiqadi. Yozma nutq o'z navbatida tilshunoslik darslarida DTS talablariga mos kelgan yozma nazorat ishlari bilan mustahkamlanadi. Yozma ishlar o'quvchining imlo savodxonligini oshirishga, uning yozma malakasini mustahkamlashga qaratilga bo'ladi. Yozma ishlarga: insho, bayon, diktant, kichik matn kabilar kirish mumkin. Yozma ishda umumiy fikr yozma bayon qilinadi. Fikr umumiyliги hajman kichik (matn), yoki kattaroq (insho, bayon, diktant) bo'lishi mumkin. Bu esa tinglovchining bilim saviyasi va yosh darajasi bilan belgilanadi.

Yozma ish ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning savodxonligini oshirish maqsadida olinadi. Yozma ishning har bir turida o'quvchi dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi. "Yozma ish — yozma shaklda bajarilgan ijodiy matnlar (insho, ijodiy bayon), tinglab tushunish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikmi yozma tarzda bayon etish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan (bayon), so'zma-so'z tinglash va ayni tarzda yozma nutqda aks ettirish, imlo me'yorlariga amal qilish darajasini bilishga mo'ljallangan (diktant) matnlar"

O'quvchilarning yozma savodxonligi DTS talablaridan past darajada bo'lsa, o'qituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qo'shimchalar kiritishi yoki o'quvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qo'shimcha darslar tashkil qilishi samara beradi. O'quvchi dasturda belgilangan DTS talablarini hamma vaqt ham risoladagiday uddalay olmasligi mumkin. Buning bosh sababi, o'quvchilarning quyi sinflarda yoki oldingi mavzularda o'rganishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarida bo'shliq yuzaga kelganidir. Bu bo'shliq barcha uchun bir xil – standart bo'lmaganidan bu masalaga har bir o'qituvchi individual – ijodiy yondashishiga to'g'ri keladi. O'qituvchi real vaziyatdan kelib chiqqan holda nafaqat yozma ishlarni, balki sinf va uy ishlarini ham e'tibor bilan

o'rganib chiqmog'i, har bir o'quvchi yo'l qo'ygan xatolarni belgilab olmog'i va ular asosida guruhlangan xatolar ro'yxatini tuzmog'i, umumiy xato va kamchiliklarni umumiy ko'rinishda, xususiy xato va nuqsonlarni individual ishlab chiqishi talab etiladi.

Asosiy qism

Diktan –o'quvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarini o'rgatishda hamda bu qoidalar yuzasidan hozil qilingan malakani tekshirishda qo'llanadigan yozma ish. Bu yozma ish turida o'quvchilar bor bilim va ko'nikmalarini ishga soladilar. Katta ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan bu yozma ish turi tinglovchining bilimini nazoratchi tomonidan tekshirishga xizmat qiladi. Bunday nazorat barcha me'zonlarga monand baholash bilan o'z tasdig'ini topadi. Diktan(lot.dicto-aytib turib yozdiraman) degan ma'noni anglatadi. Tinglovchi va eshittiruvchining O'zaro munosabatidagi bu yozma ish turi asosan takrorlash, mustahkamlash, nazorat qilish bilan izohlanadi.

“Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

Ta'limiy diktant. Diktantning bu turi o'rgatilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining ma'lum bir qismida mashq sifatida o'tkazilib, unga alohida soat ajratilmaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'limiy diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Lug'at diktanti.
2. Saylanma diktant.
3. Ko'rsatuv diktanti.
4. Yoddan yozuv diktanti.
5. Ta'kidiy diktant.
6. Izohli diktant.
7. Ijodiy diktant.
8. Erkin diktant.

Tekshiruv diktanti. Diktantning bu turida o'quvchilar so'zlarni qanchalik o'zlashtirganlarini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi”

Adabiyotlar qism va metodologiya

Diktant guruhlanishida olimlar va pedagoglar turlicha fikr bildirishgan. Yuqoridagi fikrga ma'noviy yaqin guruhlanishni I.Xolmurodov va S. Musayevlar olib borgan. Ular diktant turlarini 2 guruhga: nazorat va ta'limiy diktantlarga bo'ladi. Ushbu guruhlanish diktantning maqsad-vazifasiga qarab izohlanadi. Ta'limiy diktantlar tarkibiga esa rasmi diktant turini ham qo'shadi. Shunday qilib ular ta'limiy diktantni quyidagi guruhlashda amalga oshirishadi: ta'kidiy diktant, saylanma diktant, erkin diktant, lug'at diktant, rasmi diktant, ijodiy

diktant, izohli diktant. Ko'rinib turganidek, bu qatorda yoddan yozuv diktanti mavjud emas.

Demak, diktant vazifa va maqsadiga ko'ra 2 turga: tekshiruv(nazorat) va ta'limiy diktantlarga bo'linadi. "Ta'limiy diktant o'rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida va ba'zan to'liq dars jarayonida o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi" Bu diktant turi asosan ma'lum bir mavzu yuzasidagi bilimlarni rivojlantirish, shuningdek takrorlash orqali namoyon bo'ladi.

Ta'limiy diktantda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Birinchi navbatda bu diktant turi imloviy savodxonlikni oshirish bilan birga, mustahkam bilib berishdan iborat. "Katta mavzular o'tib bo'lingach, shuningdek, chorak oxirida tekshiruv diktant o'tkaziladi. Tekshiruv diktantgacha grammatik, orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi. Tekshiruv diktant, asosan, o'rganilgan qoidalarining qanchalik o'zlashtirilganligini tekshirish maqsadida kundalik va oraliq nazorat shaklida o'tkaziladi. O'tilgan orfografik qoidalar yodga olinadi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantning ta'limiy ahamiyati katta"

Ta'limiy diktant tekshiruv diktantga nisbatan ko'proq funksiyalarni O'z ichiga oladi. Tekshiruv diktant olgan bilimlarni nazorat qilib tekshiradi. Ta'limiy diktant nazorat bilan birga, olingan barcha bilim va ko'nikmlarni mustahkamlaydi. Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarini o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan keyin uning oxirida o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni samarali bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan ham tekshiruv diktanti ta'limiy ahamiyatga egadir. Diktant eshitib idrok qilingan so'z, gap, yoki matnni yozishdir. Diktant jarayonida tinglovchining leksik, fonitek, grammatik bilimlari qay darajada ekanligi a'yon bo'ladi. Demak, diktantni to'laqonli to'g'ri yozish uchun biz ham nazariy, ham amaliy bilimga ega bo'lishimiz kerak.